

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY RIVOJLANISHIDA O'YINNING AHAMIYATI

Suvanova Sevara Baxodir Qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim
metodika kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maktabgacha katta yoshdagi bolalar ijodiy rivojlanishida o'yinning ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida o'yin terapiyasining ahamiyati, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatida hamda bolaning aqliy rivojlanishida o'yin usullaridan foydalanish yo'llari*

Kalit so'zlar: *“MTT”, “YUNISEF”, “Men” “Ijodkorlik”, “xotira” “diqqat”, “tasavvur”, “jamoatchilik”, “o'yin”*

O'zbekiston Respublikasi maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi maktabgacha ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratadi. Bola rivojlanishi va tarbiyasida faoliyatning muhim turi hisoblangan o'yin katta ahamiyatga ega. U maktabgacha yoshdagi bola shaxsiyati, ahloqiy-irodaviy fazilatlarini shakllantirishda samarali usuldir, o'yin orqali ta'lim berishda atrof-olamga ta'sir etish ehtiyoji ro'yobga chiqadi.

Bola uchun o'yin- o'zini ko'rsatish va namoyon qilish yo'li. O'yinda bola o'zi istagan qahramonga aylanadi; mehribon sehrigar, jasur jangchi, uchuvchi-fazogir, sayyoh. O'yinda bola o'zi xohlagan joyda bo'ladi; oyda dengiz tubida, maktabda. O'yin bolaga vaqtni bir lahzaga to'xtatish, uni qaytarish va yana ko'p marotaba takrorlash imkonini bvradi. Har bir bolaning o'z dunyosi bor. Lekin u tengdoshlari qatoriga kirib kelganida o'zi uchun boshqa bolalar dunyosini “kashf” etadi. Bu juda qiziqarli va maroqli jarayondir, ammo boshqa insonni tushunish va dunyoni qabul qilish, ichki olamni ochish bola uchun juda murakkab.

O'yinda bola shaxsining barcha qirralari ochiladi, ruhiyatida yangi, yanada yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishga tayyorlaydigan sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu bilan psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida o'yinning ulkan tarbiyaviy imkoniyatlari yuqoriligini aytishadi.¹⁸

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish vatarbiyalash bolaning ijtimoiy, xissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Bu unga umri davomida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi, shuning uchun ularga ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatalr yaratish, ularni ko'plab quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati:

- Bolaning ijobiy ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. O'yinda improvizatsiya qilsa,

¹⁸Agrippina Shin va Shaxnoza Mirziyoyeva va boshqalar. “O'yin orqali ta'lim olish” T. 2020 y

timsollar, vaziyatlarni o'ylab topsa va shu tariqa atrof olam haqida yanada ko'proq ma'lumotlarni olsa bo'ladi;

- Ruhiiy (psixik) jarayonlarni shakllantiradi; xotira diqqat, tasavvur, nutq va h.k.

- Bolalarga quvonch bag'ishlaydi, turli xissiyot va kechinmalarni uyg'otadi, bolalar uchun atrofimizdagi voqelikni anglash va ijodiy aks ettirishning qiziq va qulay shakli hisoblanadi.

- Ijtimoiy xulq-atvorning dastlabki ko'nikmalarini egallashga imkon beradi; boshqa bolalar bilan muloqatda bo'lish, ular bilan turli munosabatga kirishish, umumiy o'yin rejalarini amalga oshirish uchun kelish va birlashish, o'yindagi sheriklarining manfaatlarini hisobga olish;

- Bolalarga jamiyatdagi o'z o'rnini tushinish va o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni kamaytirishga yordam beradi. O'yinda bolalar ko'nikmalaridan foydalanuvchi nazorat qiladigan harakat makonini yaratadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy hayoti aynan o'yinda to'liq faollashgan bo'ladi. O'yin bolalarga muloqatning turli shakllaridan mustaqil foydalanish imkonini beradi.

O'yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlar shakllanadi;

- O'yin mazmuni, qoidalari bilan belgilanadigan munosabatlar;

- O'yin bo'yicha namoyon bo'ladigan haqiqiy munosabatlar (rollarning taqsimlanishi, nizodan chiqish va h.k.)

Real munosabatlar shaxsiy bo'lib, nafaqat o'yinda balki maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning butun yashagan davri davomida shakllanadi. Shunday qilib, haqiqiy munosabatlar asosida bolalar "jamoatchilik" ifatlarini shakllantiradilar.¹⁹

O'ynayotgan bolalar guruhiga kirish, unda muayyan tarzda harakat qilish, sheriklar bilan munosabatlar o'rgatish, jamoatchilik fikriga bo'ysunish.

Munosabatlar asosida ijtimoiy his-tuyg'ular va odatlar shakllanadi; birgalikda va maqsadli harakat qilish qobiliyati rivojlanadi; manfaatlar mushtarakligi anglanadi; o'z-o'zini hurmat qilish va o'zaro hurmat qilish asoslari shakllanadi. O'yin faoliyatining katta ahamiyati shundaki, u bolalar jamiyatini shakllantirish uchun juda keng imkoniyatlarga ega.

O'yinlarda bolalar his-tuyg'ularini rivojlantiradilar, o'z taassurotlarini aks ettiradilar, o'zlari taqlid qilayotgan va chin dildan o'xshashni istagan shaxsning bilimi va hatti-harakatini o'zlashtirishga harakat qiladilar. O'yin davomida bolalar do'stona munosabatlarga kirishadilar, birgalikda harakat qiladilar va zavqlanadilar.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda o'yinlar ancha murakkab syujet bilan ajralib turadi. Unda odatda inson munosabatlari, ijtimoiy hayotning turli hodisalari aks etadi; o'yinlarda bevosita kuzatuvlardan va bilvosita (kitob o'qish, suhbatdan so'ng va hk.) olingan tasavvurlar ulanib ketadi. Barcha yoshdagi bolalar o'yinlarida bolalarning his-

¹⁹A.P.Usova "Programma vospitaniya detskom sadu" <http://www.dates.gnpbu.ru>

tuyg'ulari va atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari yaqqol namayon bo'ladi.

6-7 yoshga kelib o'yinning roli va ahamiyati oshadi. Bolalar ularga tanish bo'lgan o'yinlarni o'zlari tashkil qila oladi, ishtirokchilar tomonidan qoidalar aniq bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bevosita rahbarlik qilish usullari qo'llanilishi davom etadi va o'yin mavzusini taklif qilish, uni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berish va ayrim bolalarni o'yin materiallarini tanlashga o'rgatish shakllari qo'llaniladi. O'yinni boshqarishning o'ziga xosligi shundaki, uni tashkil etish usullari o'yin vazifasi va hayoliy vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lishi va pedagog hayrixoh ishtirokchi pozitsiyasini egallashi lozim. Katta yoshdagi bolalarda o'yinchoqlar va o'yin materiallariga ma'sulyatli, ehtiyotkorona munosabatda bo'lish odatini shakllantiradilar. Ular o'z tashabbusi bilan stol o'yinlari uchun qutilarni tamirlaydi, qo'g'irchoq kiyimini yuvadi.²⁰

O'yin- bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy hissiy salomatligi va farovonligida markaziy rol o'ynaydi. Tadqiqotlar hatto o'ynash imkoniyatidan mahrum bolalar keyinchalik ijtimoiy va hissiy muammolarga duch kelishi mumkinligini tasdiqladi.²¹

O'yin bu bolalar olamni qanday qabul qilishi va o'z tajribasini anglashidir. O'yin shunday ahamiyatga egaki, 2013-yilda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasiga uning ahamiyati haqida quyidagi izoh qo'shildi. Unda aytilishicha, o'yinlar va o'yin-kulgu bolalar salomatligi va farovonligi uchun juda muhimdir, va ijodkorlik, tasavvur, o'z-o'ziga ishonch, samaradorlik va jismoniy, ijtimoiy, kognitiv va hissiy kuch va ko'nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ular ta'limning barcha jihatlariga hissa qo'shadilar; o'yinlar kundalik hayotda ishtirok etish shakli bo'lib, bolaga faqat quvonch va zavq keltirishi nuqtai nazaridan katta ahamiyat ega. Ijodiy o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi. Ijodiy o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261- sonli qaror (09.09.2017)

2. PQ-3261 09.09.2017 Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror.

3. "Maktabgacha pedagogika" F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T. 2019

4. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish." A.Shin, Sh.Mirziyoyeva va boshqalar (Metodik qo'llanma) T. 2020

5. O'yin orqali ta'lim olish. Shin.A.V., Mirziyoyeva.Sh.Sh., Grosheva.I.V, T.2020

²⁰O'yin orqali ta'lim olish Agripina Shin. Shaxnoza Mirziyoyeva va boshqalar T. 2020

²¹Fraser Brown 2013

INTERNET SAYTLARI:

1. [www. tdpi. uz](http://www.tdpi.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www. Edu. Uz](http://www.Edu.Uz)